

XORIY INVESTITSİYALAR VA KREDITLARNI JALB ETISH VA O‘ZLASHTIRISH TARTIBIGA OID

USLUBIY QO‘LLANMA



“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi
Toshkent – 2025

Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish va o'zlashtirish tartibiga oid uslubiy qo'llanma. – Toshkent. “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y. – ** b.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda ularni o'zlashtirish har bir davlat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Ular yangi ish o'rinlarini yaratish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish va xalqaro iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotiga qo'shimcha moliyaviy resurslar oqimini ta'minlab, milliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshiradi.

Mazkur uslubiy qo'llanma xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda ulardan samarali foydalanish tartibini belgilashga qaratilgan bo'lib, amaliyotda yagona yondashuvni shakllantirish, huquqiy va tashkiliy asoslarni mustahkamlashni maqsad qiladi. Shu orqali xorijiy kapitalni jalb etish jarayonida yuzaga keladigan masalalarni samarali hal qilish va iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirishga xizmat qilishi ko'zda tutiladi.

© O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil.

© “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y.

**FOYDALANILGAN
NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR**

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" gi Qonuni	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 24-iyuldagi 927-son "Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi 4434-son "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-maydagi 90-sonli "Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni	
Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-maydagi 420-sonli "O'zbekiston Respublikasining to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi Qarori	

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda ularni samarali o'zlashtirish masalasi davlat iqtisodiy siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jahon iqtisodiy integratsiyasi jarayonida investitsiyalar oqimini jalb qilish har bir davlat uchun iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va yangi texnologiyalarni joriy etishda asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois mamlakatimizda ham investorlar uchun qulay huquqiy muhit yaratish, ularning manfaatlarini himoya qilish, imtiyoz va kafolatlar tizimini kengaytirish borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy kapitalning jalb qilinishi natijasida ko'plab yirik sanoat va infratuzilma loyihalari hayotga tadbqiq etildi, energetika, transport, qishloq xo'jaligi, axborot texnologiyalari va ijtimoiy sohalarda sezilarli natijalarga erishildi. Kredit mablag'larini jalb qilish jarayonida esa xalqaro moliya institutlari va xorijiy banklar bilan hamkorlik yangi bosqichga ko'tarilib, mamlakatning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va iqtisodiy islohotlarni jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan mazkur uslubiy qo'llanma xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda ularni o'zlashtirish tartibini huquqiy va tashkiliy jihatdan yoritishga, amaliyotda yagona yondashuvni shakllantirishga va investitsion faoliyatning samaradorligini oshirishga qaratilgan.



Umumiy qoidalar

Mazkur uslubiy qo'llanmada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

- **Loyiha tashabbuskorlari** — o'z tasarrufiga kiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan amalga oshirilishga taklif etilayotgan loyihalar bo'yicha, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda yirik korxonalar va xo'jalik yurituvchi subyektlar — vazirliklar, idoralar, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tasarrufiga kirmaydigan xo'jalik yurituvchi subyektlari tomonidan amalga oshirilishga taklif etilayotgan loyihalar bo'yicha;
- **investitsiya taklifi** — tashabbuskor tomonidan ishlab chiqilgan, xorijiy investitsiyalar va kreditlarini jalb qilishni nazarda tutuvchi loyihani amalga oshirish bo'yicha taklif;
- **rivojlantirish dasturi** — iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash va respublika hududlarini kompleks rivojlantirish bo'yicha o'rta muddatga mo'ljallangan, shuningdek, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma obyektlari va kommunikatsiyalarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalar, zamonaviy energiya samarador va energiya tejaydigan texnologiyalarni, energoservis shartnomalariga muvofiq

qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish sohasidagi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha loyihalarni o'z ichiga olgan maqsadli dasturlar;

- **O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi (keyingi o'rinlarda — Investitsiya dasturi)** — Hukumat qarori bilan tasdiqlanadigan, Hukumat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalbetish orqali amalga oshiriladigan Investitsiya loyihalarining manzilli dasturlarini, shuningdek, xorijiy investorlar va kreditorlarni izlash va tanlash ishlari olib borilayotgan Ustuvor investitsiya takliflarining yig'ma ro'yxatini (keyingi o'rinlarda — yig'ma ro'yxat) o'z ichiga olgan hujjat;
- **XMII** — O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish (birgalikda moliyalashtirish)ni amalga oshiruvchi xalqaro moliyaviy va iqtisodiy institutlar;
- **XHMT** — O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish (birgalikda moliyalashtirish) ni amalga oshiruvchi xorijiy hukumat moliya tashkilotlari;
- **loyiha oldi hujjatlar** — loyihani amalga oshirish imkoniyati va maqsadga muvofiqligi, uningsamaradorligini baholovchi hujjat, shu jumladan dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash/hisob-kitob (DTIA/DTIH), texnik-iqtisodiy asoslash/hisob-kitob (TIA/TIH), tender va tanlov hujjatlari, XMII va XHMTning dastlabki baholash missiyasi (maslahatchilari) hisoboti;

boshqaruvchi ofisi — rahbari oʻrnatilgan tartibda Oʻzbekiston Respublikasi tomonidan XMIIning boshqaruvchisi etib tayinlangan hamda ushbu tashkilot bilan hamkorlik doirasida ishchi organ hisoblanadigan vazirlik yoki idora.

Investitsiya loyihalari tashabbuskorlari va davlat organlarining asosiy funksiya va vakolatlari



Xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilish jarayonida oʻzaro samarali hamkorlikni taʼminlash, investitsiya loyihalarini amalga oshirishni sifatli monitoring qilish maqsadida:

a) loyiha tashabbuskorlari — vazirliklar, idoralar, mahalliy davlat hokimiyat organlari, yirik korxonalar va xoʻjalik yurituvchi subyektlar quyidagilarni amalga oshiradi:

- tegishli tarmoqlar va hududlardagi ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, rivojlantirish dasturlari loyihalarini ishlab chiqish;
- tashabbus qilinayotgan investitsiya loyihalari boʻyicha investitsiya takliflari va hujjatlarini oʻz vaqtida va sifatli tayyorlash;
- hamkorlik uchun salohiyatli xorijiy investorlar va

kreditorlarni izlash va jalb qilish, ular bilan loyihani amalga oshirish shartlarini muhokama qilish bo'yicha muzokaralar tashkillashtirish va o'tkazish;

- xorijiy investorlar va kreditorlarning loyihalari va takliflarini amalga oshirishning samarali va eng maqbul sxemalarini tanlash;
- xorijiy investorlar va kreditorlar bilan erishilgan kelishuvlarni rasmiylashtirish, imzolash va bajarish;
- loyihani samarali va o'z vaqtida amalga oshirish hamda loyiha parametrlariga erishish, jalb etiladigan xorijiy investitsiya va kreditlardan maqsadli foydalanish, tashqi qarzar bo'yicha majburiyatlarni o'z vaqtida so'ndirish;
- investitsiya takliflari va loyihalarini Investitsiya dasturiga kiritish uchun O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligiga zarur hujjatlarni belgilangan tartibda taqdim etish;

b) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilish va o'zlashtirish jarayonida idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirishda yetakchi bo'g'in va mas'ul hisoblanadi, shunga muvofiq quyidagilarni amalga oshiradi:

- mamlakat iqtisodiyotini bir maromda rivojlantirish, tabiiy, mineral-xomashyo, ishlab chiqarish, ilmiy-texnik va mehnat salohiyatidan, shuningdek, tegishli infratuzilmadan samarali foydalanishni ta'minlashni hisobga olgan holda, iqtisodiyotning alohida tarmoqlari

va mintaqalarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishni tashkillashtirish va muvofiqlashtirish;

- Investitsiya dasturini shakllantirishda vazirliklar, idoralar, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari ishini muvofiqlashtirish;
- Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi keyinchalik xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilish masalasini ishlab chiqishi uchun investitsiya takliflari ro'yxatini shakllantirish;
- xorijiy investorlar va kreditorlar takliflarini ko'rib chiqishda ishtirok etish;
- XMII va XHMT ishtirokida amalga oshirish taklif qilinadigan investitsiya takliflari portfelini shakllantirish;
- tarmoqlar va mintaqalarni rivojlantirish dasturlarining asosiy ko'rsatkichlarini monitoring va tahlil qilish, ularning ijrosi bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga tegishli takliflar kiritish;
- Investitsiya dasturining manzilli qismiga kiritilgan investitsiya loyihalarini monitoring qilish, ularni amalga oshirish davomida muammoli masalalarni aniqlash va tegishli takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritish;
- muayyan investitsiya loyihalari bo'yicha tashqi ishlab chiqarish infratuzilmasini qurish va rekonstruksiya qilishni muvofiqlashtirish va monitoring qilish;
- loyihalar ishga tushirilgandan so'ng TIAda nazarda

tutilgan ko'rsatkichlarga, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasiga erishilishini monitoring qilish;

v) Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi quyidagilarni amalga oshiradi:

- xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilish uchun investitsiya takliflarining yagona bazasini shakllantirish va doimiy yangilab borish;
- salohiyatli xorijiy investorlar va kreditorlarga amalga oshirilishi taklif etilayotgan investitsiya takliflari to'g'risidagi axborotlarni yetkazish va ularga qo'shimcha ma'lumotlar taqdim etilishini o'z vaqtida ta'minlash;
- xorijiy investorlar va kreditorlarning takliflarini umumlashtirish va tahlil qilish;
- loyihani amalga oshirish shartlarini muhokama qilish uchun salohiyatli xorijiy investorlar va kreditorlar bilan muzokaralar o'tkazilishini muvofiqlashtirish;
- xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb qilish va o'zlashtirish, erishilgan kelishuvlarni rasmiylashtirishda loyihalar tashabbuskorlari va davlat organlariga ko'maklashish va ular faoliyatini muvofiqlashtirish;
- qonunchilikda belgilangan hollarda xorijiy investor bilan Hukumat nomidan investitsiya shartnomasini tuzish;
- xorijiy investorlar va kreditorlar tomonidan qabul qilingan majburiyatlar o'z vaqtida ijro etilishi va moliyalashtirish ochilishini, xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilishini monitoring qilish;

- tender va shartnoma hujjatlari ishlab chiqilishi va belgilangan tartibda kelishilishini, uskuna va materiallar yetkazib berilishi hamda ishlar va xizmatlar bajarilishini monitoring qilish;
- investitsiya muhitini tizimli tahlil qilish hamda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan uni yaxshilash va iqtisodiyotning muhim tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

g) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi quyidagilarni amalga oshiradi:

- Hukumatning tegishli qarorlari asosida O'zbekiston Respublikasi nomidan kafolat berish va moliyaviy bitimlarni rasmiylashtirish;
- davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari hisobiga investitsiya loyihalarini o'z vaqtida va birgalikda to'liq moliyalashtirish;
- xorijiy investorlar va kreditorlarning takliflarini ko'rib chiqishda ishtirok etish;
- respublika va mahalliy budjetlarda muvozanatni ta'minlashdan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi tomonidan jalb qilinadigan tashqi qarzlarni ijtimoiy ahamiyatga ega investitsiya loyihalari bo'yicha maqbul ravishda taqsimlash;
- davlat budjeti va budjetdan tashqari davlat jamg'armalari mablag'lari hisobidan so'ndirish ko'zda tutilgan davlat

tashqi qarzlari bo'yicha foizlar, komissiyalar va asosiy qarzni to'lash bo'yicha majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi nomidan qonunchilikda belgilangan tartibda berilgan kafolat bo'yicha majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash;

- davlat budjeti va budjetdan tashqari davlat jamg'armalari mablag'lari hisobiga loyihalarning moliyalashtirilishini hamda O'zbekiston Respublikasi nomidan yoki kafolati ostida jalb qilinadigan mablag'larning o'zlashtirilishini monitoring qilib borish;



Bilib oling!

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda ishtirok etuvchi tijorat banklari quyidagilarni amalga oshiradi:

- xorijiy investorlar va kreditorlarning takliflarini ko'rib chiqishda ishtirok etish;
- imzolanadigan kredit shartnomalari asosida investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish va investitsiyalarni loyiha korxonalarining ustav kapitaliga qayta moliyalashtirish;
- berilgan mablag'lardan qat'iy maqsadli foydalanilishi hamda o'z vaqtida qaytarilishi ustidan tizimli monitoring olib borish va tekshirish, ularning natijalarini ko'rib chiqish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan qarorlar qabul qilish va zarur choralar ko'rish;



j) O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi quyidagilarni amalga oshiradi:

- xorijiy investitsiyalar va kreditlarni (qarzlar) jalb qilishni nazarda tutuvchi loyihalar tashabbuskorlariga mintaqalarni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish doirasida tegishli investitsiya takliflarini tayyorlashda ko'maklashish;
- tadbirkorlarga salohiyatli investorlar va kreditorlar bilan muzokaralar olib borishda hamda loyihalar bo'yicha hujjatlarni ishlab chiqishda ko'maklashish;
- salohiyatli xorijiy investorlar va kreditorlarga investitsiya takliflari va loyihalarining taqdimotlarini Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi bilan birga tashkillashtirish va o'tkazish;



Investitsiya takliflarini tashabbus qilish va ma'lumotlar bazasini shakllantirish




Bilib oling!

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari respublikaning tegishli tarmoq va hududlaridagi ishlab chiqarishlarni rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash dasturlarini ishlab chiqadi.



Ishlab chiqiladigan rivojlantirish dasturlari tarkibiga xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb qilgan holda amalga oshirishga taklif etilayotgan investitsiya loyihalari ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan shaklda alohida bo'lim sifatida kiritiladi.





Rivojlantirish dasturlari Iqtisodiyot va moliya vazirligi taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

10. Investitsiya dasturining yig'ma qismi, tarmoqlar va mintaqalarni rivojlantirish dasturlariga kiritilmagan, xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb qilishni ko'zda tutuvchi investitsiya loyihalari bo'yicha ushbu loyihalar tashabbuskori tomonidan O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligiga investitsiyaviy takliflar kiritiladi.

11. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi belgilangan muddatlarda ekspertiza o'tkazganidan so'ng investitsiya taklifi tashabbuskoriga muddatlarni ko'rsatgan holda, loyihani amalga oshirish masalasini ishlab chiqishni davom ettirish maqsadga muvofiqligi to'g'risida xulosa yuboradi.



Salohiyatli investorni tanlash

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi sotilishi mo'ljallanayotgan investitsiya loyihalari to'g'risidagi axborotni salohiyatli xorijiy investorlar va kreditorlarga quyidagi yo'llar orqali yetkazadi:



investitsiyaviy takliflarni Internet tarmog'ida joylashtirish;



investitsiya takliflarini xorijiy kompaniyalar va moliya tashkilotlariga yuborish;



O'zbekiston Respublikasi hududida va xorijda tashkil etiladigan investitsiyaviy va biznes-forumlar, ko'rgazmalar, davra suhbatlari, seminarlar va konferensiyalar davomida investitsiya takliflarining taqdimotini o'tkazish;



o'tkaziladigan tadbirlar va muzokaralar davomida salohiyatli xorijiy investorlar orasida tarqatiladigan taqdimot materiallari va boshqa axborot nashrlarida amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan investitsiya loyihalari haqida tegishli axborotlar berish.

Salohiyatli investorlar va kreditorlar tomonidan birorta aniq investitsiya loyihasiga qiziqish bildirilgan taqdirda Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi, jumladan quyidagilar orqali zarur ko'makni beradi:



O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini amalga oshirishning mavjud normativ-huquqiy bazasi, xorijiy investorlar va xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar uchun qonunchilikda belgilangan imtiyoz va preferensiyalar, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni ochish va faoliyatini olib borish tartibi va taomillari to'g'risida xabardor qilish;



loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tabiiy, mineral-xomashyo, ishlab chiqarish, ilmiy-texnik va mehnat resurslari hamda tegishli infratuzilma mavjudligi to'g'risida axborot berish;



tashabbuskorlar bilan salohiyatli investorlar va kreditorlar o'rtasida aloqalar o'rnatish;



O'zbekiston Respublikasiga tashriflarni tashkil-lashtirish, shu jumladan viza olish, uchrashuvlar jadvalini tayyorlash va kelishishda ko'maklashish.



Bilib oling!

Salohiyatli investorlar va kreditorlar tashabbuskorlar, Vazirlar Mahkamasining tegishli axborot-tahlil departamentlari, Savdo-sanoat palatasi, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlariga bevosita murojaat qilgan taqdirda, kelgan murojaatlar Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligiga umumlashtirish va tahlil qilish uchun yuboriladi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi salohiyatli investorlar va kreditorlardan kelib tushgan takliflarni **1** hafta muddatda tashabbuskorga kelgusida ishlab chiqish uchun yuboradi.



Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi salohiyatli investorlar va kreditorlardan kelgan takliflarni loyiha tashabbuskori, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'TTJga (*O'TTJ mablag'lari hisobiga birgalikda moliyalashtiriladigan loyihalar bo'yicha*) yuboradi;





Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi va O'TTJ 10 kun muddatda loyiha tashabbuskoriga taklif etilayotgan salohiyatli investorlar va kreditorlar bilan loyihani kelgusida ishlab chiqish maqsadga muvofiqligi to'g'risida xulosa yuboradi;



loyiha tashabbuskori aniq xorijiy investor va kreditor ishtirokida loyihani kelgusida amalga oshirish maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi o'z taklifi va vazirliklar xulosasini Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;



19. Olingan takliflar va xulosalar asosida loyiha tashabbuskori:

- Investitsiya dasturi, tarmoqlarni rivojlantirish dasturlarining yig'ma ro'yxatiga kiritilgan loyihani amalga oshirishning tarmoq jadvalini ishlab chiqadi, uni Iqtisodiyot vazirligi va Xorijiy investitsiyalarni jalb

etish agentligi bilan kelishib, tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasining tegishli kompleksi rahbariga kiritadi;

- hududlarni rivojlantirish dasturiga kiritilgan loyihani amalga oshirishning tarmoq jadvalini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun uni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiga kiritadi;
- tasdiqlangan tarmoq jadvaliga muvofiq loyiha oldi hujjatlarini kelgusida ishlab chiqish va loyihani amalga oshirish bo'yicha choralar ko'radi.

Loyiha oldi hujjatlarini ishlab chiqish tasdiqlangan tarmoq jadvaliga qat'iy muvofiq ravishda loyiha tashabbuskori tomonidan ta'minlanadi. Loyiha oldi hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

21. Vazirlar Mahkamasining axborot-tahlil departamentlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda kelgusida loyihaning tasdiqlangan tarmoq jadvallariga muvofiq amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi.

ILOVA
Investitsiya taklifining
PASPORTI

(loyihaning nomlanishi va joylashuvi)

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Loyiha parametrlari	Izoh
1.	Loyihaning umumiy qiymati, shu jumladan:	ming dollar		
1.1.	milliy valyutada	mln so'm		
1.2.	xorijiy valyutada	ming dollar		
2.	Xorijiy valyutadagi xarajatlar, jami	mln dollar		
2.1.	shu jumladan uskunalar xarid qilish uchun	ming dollar		
2.2.	qurilish-montaj ishlariga	ming dollar		
3.	Milliy valyutadagi xarajatlar, jami	mln so'm		
3.1.	shu jumladan uskunalar xarid qilish	mln so'm		
3.2.	qurilish-montaj ishlari uchun	mln so'm		

4.	Moliyalashtirish manbalari:			
4.1.	budjet mablag'lari	mln so'm		
4.2.	xorijiy kreditlar, jami	ming dollar		
-	shu jumladan Hukumat kafolati ostida	ming dollar		
4.3.	to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, jami	ming dollar		
-	shu jumladan ustav fondiga qo'shilgan ulush	ming dollar		
4.4.	o'z mablag'lari	mln so'm		
4.5.	tijorat banklari kreditlari	mln so'm		
4.6.	boshqa manbalar (ko'rsatilsin)	mln so'm		
5.	Ish bilan band bo'lganlarning taxminiy soni	kishi		
5.1.	shu jumladan yangidan yaratiladigan ish o'rinlari	kishi		
6.	Qurilishning davomiyligi, jami	oy		
6.1.	ishlar boshlanishining taxminiy sanasi	oy, yil		

6.2.	obyektni ishga tushirishning taxminiy sanasi	oy, yil		
7.	Loyihaning qoplanish muddati, jami	yil		
8.	Ishlab chiqaradigan mahsulotlar, xizmatlarning tabiiy ko'rinishdagi yillik hajmi	tegishli birlikda		
8.1.	shu jumladan eksportga	tegishli birlikda		
9.	Xizmatlar, mahsulotlar sotishdan tushgan tushumning yillik hajmi	mln so'm		
-	shu jumladan eksportga	ming dollar		
10.	Mahsulotlarni sotish mo'ljallanayotgan bozorlar:			
10.1.	ichki bozordagi ulush	%		
10.2.	tashqi bozordagi ulush	%		

Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish va o'zlashtirish tartibiga oid uslubiy qo'llanma

Nashr uchun mas'ullar:

Muharrir:

Kompyuterda sahifalovchi:

Jamshid G'ofurov

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi
"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi.

Nashr. lis. Al № 032, 29.10.2019.

Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy.

Telefonlar: (99871) 233-28-18, (99871) 280-55-47

Veb sayt: www.adolatmarkazi.uz

e-mail: info@adolatmarkazi.uz

Qog'oz bichimi 60x841/16. "Calibri" garniturasida.

Ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i *

Nashriyot hisob tabog'i **. Adadi ** nusxa.

***-buyurtma. Narxi shartnoma asosida.